

Iskandarova Sharifa Madaliyevna Farg‘ona davlat universiteti filologiya
fanlari doktori, professor.

prof.iskandarova@mail.ru

G‘aniyeva Dilafruz Xasanboy qizi Qo‘qon davlat pedagogika instituti

tayanch doktoranti

dilyaganieva17@gmail.com

998904071993

USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARIDA NUTQIY ETIKET MASALALARI

ANNOTATSIYA: *Ma’lum xalq madaniyatini ko‘rsatuvchi eng muhim va asosiy vositalardan biri bu til hisoblanib, nutqiy etiket shakllari tildagi ana shu madaniyat va millat belgisini aks ettiruvchi birliklardir. Kommunikantlar o‘z tillarida muloqot jarayoniga kirishishar ekan, ularning tabiati va madaniyatiga xos tarzda etiketlar shakllanadi va har bir millat uchun o‘ziga xos bo‘lgan nutqiy etiket qoliplari paydo bo‘ladi. Ta’lim jarayoni inson hayotining ilk davrlaridan boshlanib, umrining so‘ngigacha davom etadigan jarayon hisoblanib, bu davr mobaynida har bir inson yosh, makon, jins, ijtimoiy muhit, vaziyat omillari ta’sirida xalq madaniyatini o‘zida namoyon qiluvchi turlicha murojaat shakllari, nutqiy etiket qoliplaridan foydalanadi. Ushbu maqolada ana shu jarayondagi nutqiy etiketlar lingvokulturemalarning bir bo‘lagi sifatida tadqiq qilinib, ular orqali millatning tili va madaniyatidagi lingvopragmatik ma’no xosliklari ustoz-shogird munosabatlari orqali yoritilgan.*

KALIT SO‘ZLAR: *nutqiy etiket, lingvokulturema, nutqiy qolip, odob-axloq funksiyasi, hurmat ifodasi, kommunikativ-pragmatik aspekt.*

Искандарова Шарифа Мадалиевна, доктор филологических наук,
профессор, Ферганский государственный университет.

prof.iskandarova@mail.ru

Ганиева Дилафруз Хасанбой қизи – докторантка Кокандского
государственного педагогического института

dilyaganieva17@gmail.com

998904071993

ПРОБЛЕМЫ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В ОТНОШЕНИЯХ ПЕДАГОГА И УЧЕНИКА

АННОТАЦИЯ: Язык считается одним из важнейших и основных средств проявления определенной национальной культуры, а формы речевого этикета – это единицы, отражающие в языке признак этой культуры и нации. По мере того как коммуниканты включаются в процесс общения на своем языке, этикеты формируются в соответствии с их природой и культурой, появляются уникальные для каждого народа образцы речевого этикета. Воспитательный процесс рассматривается как процесс, начинающийся с первых периодов жизни человека и продолжающийся до конца его жизни. В этот период каждый человек использует разные формы речевого этикета, отражающие национальную культуру под влиянием возраста, места, пола, социального окружения и ситуативных факторов. В данной статье речевой этикет в этом процессе изучается как часть лингвокультуры, а через них подробно освещаются лингвопрагматические смыслы в языке и культуре нации через взаимоотношения учителя и ученика.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: речевой этикет, лингвокультура, речевой образец, этикетная функция, выражение уважения, коммуникативно-прагматический аспект.

Iskandarova Sharifa Madaliyevna, doctor of philology, professor, Fergana State University.
prof.iskandarova@mail.ru

Ganiyeva Dilafruz Hasanboy's daughter is a doctoral student of the Kokand State Pedagogical Institute
dilyaganieva17@gmail.com
998904071993

SPEECH ETIQUETTE ISSUES IN TEACHER-STUDENT RELATIONSHIPS

ABSTRACT: Language is considered one of the most important and basic means of manifestation of a certain national culture, and forms of speech etiquette are units that reflect in the language as a sign of this culture and nation. As communicants engage in the process of communication in their own

language, etiquettes are formed in accordance with their nature and culture, and unique speech etiquette appear. The educational process is considered as a process that begins from the first periods of a person's life and continues until the end of his life. During this period, each person uses different forms of speech etiquette that reflect the national culture under the influence of age, place, gender, social environment, and situational factors. In this article, speech etiquette in this process is studied as part of the linguocultureme, and through them the pragmatic and linguopragmatic aspects in the language and culture of the nation are covered in detail through the relationship between teacher and student.

KEY WORDS: *speech etiquette, linguocultureme, speech pattern, etiquette function, expression of respect, communicative-pragmatic aspect*

KIRISH

Nutq va nutq madaniyatining o'rganilishi qadimdan mavjud bo'lib, dastavval nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar madaniyatshunoslik, odob-axloq me'yorlari qatorida o'rganib kelingan. Bu davr adabiyotlarida o'rganilgan nutqiy etiket birliklari, jumladan, muloqot shakllari til birligi sifatida emas, balki tarbiya ifodasi, inson shaxsiyatini namoyon etuvchi tushunchalar sifatida tahlil etilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Kaykovusning "Qobusnoma", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ahmad Yugnakiyning "Xibat-ul haqoyiq", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" kabi asarlarida pand-nasihat qilish, yo'l-yo'riq ko'rsatish ustuvorligi seziladi.

Nutqiy etiketni ifodalovchi birliklar keyinchalik fan doirasida o'rganila boshlandi. Dastlabki davrlarda notiqlik, nutq madaniyati va nutq etikasi masalalari tarkibida o'rganilgan mazkur birliklar fan taraqqiyoti ta'sirida alohida soha sifatida tadqiq etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahon tilshunosligida 60-yillardan beri dolzarb mavzu sifatida o'rganilib tadqiq qilinayotgan nutqiy etiketlarni dastlab kanadalik Erving Goffman birinchi marta «face» (hurmat ifodasi) tushunchasi orqali jahon tilshunosligida ilgari surgan bo'lsa, kaliforniyalik Robin Lakoff Yevropada xushmuomalalik

nazariyasini fanga olib kirdi. Amerikalik P.Braun va britaniyalik S.Levinson esa nutqiy etiketning universal tamoyillarini ishlab chiqdilar [1;2;3].

O'zbek tilshunoslaridan Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, M.Saidxonov, Sh.Sodiqova, G.Toirova, [5;6;7;8;9] va boshqa bir qator tadqiqotchilar nutqiy etiket, nutq odobining o'zbek nutqi odatining muloqot shakllari, o'zbek muloqot xulqinng ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari kabi turli mavzularida tadqiqotlar olib bordilar. Keltirilgan tadqiqot ishlaridan ko'rishimiz mumkinki, nutq madaniyatiga bag'ishlangan izlanishlarning katta qismi til doirasida bo'lib, qiyosiy tahlillarga o'zbek tilshunosligida katta ehtiyoj bor.

Ana shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida ushbu maqolada nazariy (muammo bo'yicha maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, tavsiflash, tasniflash, diaxron va sinxron tahlil metodlaridan foydalangan holda ustoz-shogird munosabatlaridagi nutqiy etiket masalalari qiyosiy tadqiq qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek va ingliz tillarida ta'lim olish jarayonida qo'llaniluvchi, ustoz-shogird munosabatlarini aks ettiruvchi nutqiy etiket birliklarining qiyosiy tahlilini lingvokulturologik va pragmatik aspektda o'rganish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- a) tilshunoslikda nutqiy etiket tushunchasining mohiyatini aniqlash;
- b) o'zbek tilida ustoz-shogird munosabatlarida qo'llaniluvchi birliklarning nutqdagi vazifasi va pragmatik xarakterini ochib berish;
- c) ingliz tilidagi teacher-student munosabatida qo'llaniluvchi murojaat shakllari va ularning nutqdagi vazifasi va pragmatik jihatlarini yoritish;
- d) o'zbek va ingliz tillaridagi nutqiy etiket birliklarining madaniyat va qadriyatlarini yoritishishga asoslangan qiyosiy tahlilini berish.

Nutqiy etiket yoki nutq madaniyati, odobi ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etib rivojlanadi. Jamiyat va undagi a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq takomillashib boradi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchiga, o'quvchining o'qituvchiga va boshqa shaxslarning muloqot jarayonidagi murojaat birliklari o'zida pragmatik, kulturologik jihatlarni aks ettiradi. Bunda murojaat birliklarining nutqiy odob-axloq funksiyasida suhbatdoshlarning tanishlilik darajasi, yosh xususiyatlari va ijtimoiy mavqeyi asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi [4,13]. Masalan, o'zbek tilida o'qituvchilar odatda o'quvchilarga ismi, ko'p hollarda ro'yxatdagi familiyasi bilan murojaat qilishadi. Ismi bilan murojaat qilinganda, samimiylik, yaqinlik kabi ijobiy munosabat ifodalanadi. Ingliz tilidan farqli, o'zbek diskursida yosh jihatdan kichik bo'lgan o'quvchiga yoshi katta o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar ismiga *bolam*, *qizim* kabi murojaat shakllari qo'shib qo'llanilganda o'qituvchining o'quvchiga hurmatini, yaqin munosabatni ifodalaydi.

Ingliz tili diskursida ism-familiyaning birgalikda qo'llanilish holatlari mavjud bo'lib, bunda qat'iylik, talabchanlik, buyruq ma'nolari ifodalanadi.

- ***'Helen Burns, if you don't go and put your drawer in order, and fold up your work this minute, I'll tell Miss Scatcherd to come and look at it!'*** (*Jane Eyre, Charlotte Bronte*) (*Helen Berns, agar hoziroq borib tortmangizni tartibga keltirmasangiz va ishingizni yig'ib qo'ymasangiz, Miss Skatcherdga kelib ko'rishini aytaman!*)

O'qituvchiga murojaat: o'zbek o'quvchilari, ularning ota-onalari, umumiy tarzda *ustoz*, erkak o'qituvchilarga nisbatan *domla*, shevada *opa*, *opo'y*, ko'p hollarda ismiga *opa*, *aka* birliklarini qo'shib murojaat qilishadi. Ingliz tilida esa *Mr, Mrs, Miss, Professor* birliklari qo'shib murojaat qilinsa, rus tilida ism-sharifi bilan murojaat qilish ulardagi nutq madaniyatini ifodalaydi. Masalan, *Ivan Petrovich, Viktor Andreyevich* kabi.

Miss Miller *was more ordinary; ruddy in complexion, though of a careworn countenance; hurried in gait and action, like one who had always a multiplicity of tasks on hand: she looked, indeed, what I afterwards found she really was, an under-teacher. (Jane Eyre, Charlotte Bronte)*

Miss Miller kamtarin, yuzlari qizil bo'lsada g'amgin chehrali edi. Har doim ko'p vazifalarni bajaradigan odamga o'xshab shoshilib yurardi: u haqiqatan ham, men keyin bilganimdek, yordamchi o'qituvchi edi. (Jane Eyre, Charlotte Bronte)

D.Jamoliddinova ayrim birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilar ekan, *domla* leksemasini murojaat birligi sifatida qo'llash faqat o'zbek xalqiga xos ekanligini, qadimdan o'zbeklarda bilimdon, aqlli insonlar ulug'lanib, ularga nisbatan hurmat ma'nosida shu so'z ishlatilganligini keltirib o'tadi[10,37].

Asar qahramoni rais buvaning nutqida qo'llangan *domla* so'zi nashriyotda ishlovchi noshirga nisbatan ishlatilgan bo'lib, hurmat ma'nosida shunday murojaat qilinayotganida pragma-kulturologik jihatni ko'ramiz. Bundan tashqari *domla* birligiga ba'zi holatlarda *-jon* qo'shimchasi qo'shib ifodalashda o'quvchi tomonidan erkalanish, yalinish, nutq jozibadorligini ta'minlash sifatleri namoyon bo'ladi.

*Xayr, **domlajon**, tavba qildim, endi xatga qarab o'qiyman! (Hoji Mu'in Shukrulla, Eski maktab, yangi maktab)*

Bunday holatni murojaat birliklarining kommunikativ-pragmatik aspekti deya ta'riflasak, bu aspektga suhbatdoshning e'tiborini jalb qilish, o'zaro hurmat ko'rsatish, nutq vaziyatida kommunikantlar o'rtasida yaxshi muhit yaratish kabi kommunikativ maqsadlarga erishishning bir vositasi sifatida qarash mumkin[4,13].

Murojaat birliklarining emotsional-ekspressiv (emotiv) funksiyasi esa adresant ya'ni murojaat qiluvchining emotsional holatini namoyon qilib, ko'pincha norasmiy muloqotda o'quvchiga nisbatan *badbaxt, dumbul, yaramas, eshshak* kabi murojaat birliklarini qo'llash orqali salbiy munosabat anglashiladi. Ingliz tilida ham bunday salbiylikni ifodalovchi *stupid, careless, green* kabi birliklar uchraydi.

*'A **careless** girl!' said Mr. Brocklehurst, and immediately after—'It is the new pupil, I perceive.'* (Jane Eyre, Charlotte Bronte)(Beparvo qiz! – dedi janob Broklxerst va keyin darhol – “Bu yangi o'quvchi, men tushundim.)

XULOSA

Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi, uztoz-shogird munosabatlarini aks ettiruvchi nutqiy etiket birliklarining qiyosiy tahlilini lingvokulturologik va pragmatik aspektda o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. O'zbek va ingliz tillarida keltirilgan murojaat shakllaridan xulosa qilishimiz mumkinki, o'qituvchiga nisbatan ijobiy munosabat, hurmat yetakchilik qilsa, o'quvchiga nisbatan ishlatiladigan birliklarda salbiy munosabatni ifodalovchi lingvokulturemalar har ikki tilda ham uchraydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chicago Linguistic Society, 1973. – P.292-305.
2. Brown P., & Levinson S. Universals in Language usage: Politeness Goffman E. International ritual: Essays in face-to-face behavior. – New York: Pantheon Books, 1967.
3. Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p's and q's // Papers from the Ninth Regional Meeting of the phenomena. – London, 1978.
4. Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат birlikларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фанл. номз. ... дисс. авторефер. – Тошкент, 2002.
5. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фанл. номз. ... дисс. авторефер. – Самарқанд, 1993.
6. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари Филол. фанл. докт. ... дисс. авторефер. – Тошкент, 2000.
7. Саидхонов М.М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. фанл. номз. ... дисс. авторефер. – Тошкент, 1993.
8. Содиқова Ш. Ўзбек тилида ҳурмат маъносининг ифодаланиш усуллари: Филол. фанл. номз. ... дисс. авторефер. – Тошкент, 2008.
9. Тоирова Г. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фанл. бўй.фалс.докт. ... дисс. авторефер. – Тошкент, 2017.
10. Жамолиддинова Д. Терминларнинг лингвомаданий birlik вазифасини бажариши хусусида баъзи мулоҳазалар – "World of Philology" Scientific Journal / ISSN 2181-3620. Volume 1 Issue 2 / December 2022.

11. Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.